

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.05.01
RAQAMLI ILMIY KENGASHI**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SIDDIQOVA SEVINCH QUROL QIZI

***CUCUMIS MELO* POLISAXARIDLARINING TUZILISHI VA XOSSALARI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Falsafa (PhD) doktori dissertasiyasi avtoreferatining mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Siddiqova Sevinch Qurol qizi <i>Cucumis melo</i> polisaxaridlarining tuzilishi va xossalari.....	3
Сиддикова Севинч Курол кизи Строение и свойства полисахаридов <i>Cucumis melo</i>	21
Siddiqova Sevinch Qurol qizi Structure and properties of polysaccharides of <i>Cucumis melo</i>	40
E’lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	43

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.K.05.01**

RAQAMLI ILMIY KENGASH

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SIDDIQOVA SEVINCH QUROL QIZI

***CUCUMIS MELO* POLISAXARIDLARINING TUZILISHI VA XOSSALARI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Farg'ona – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/B1358 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertasiyasi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar :

Mauilyanov Salixjan Alimjanovich
kimyo fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy
opponentlar:**

Aripova Salimaxon Fazilovna
kimyo fanlari doktori, professor

Turg’unboyev Shavkatjon Shuhratjon o‘g‘li
kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.05.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil «___» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel. (99873) 244-44-02, faks (998973) 244-44-93).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (...raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg‘ona sh., Murabbiylar ko‘chasi, 19. Tel. (99873) 244-44-02, faks (998973) 244-44-93, e-mail: fardu-info@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

A.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi
kimyo fanlari doktori, professor

Q.M. Sherg‘oziyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sh.V. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi kimyo fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy farmatsevtika, tibbiyot va oziq-ovqat sanoatining tabiiy biologik faol moddalarga, xususan, o‘simlik polisaxaridlariga qiziqishining ortib borayotganligi ularning inson salomatligi uchun xavfsizligi, biyoslashuvchanligi va ekologik toza manbaa sifatida foydalanish imkoniyatlari bilan bog‘liq. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda agrosanoatda hosilni qayta ishlash jarayonidan keyin qoladigan turli xil qishloq xo‘jalik mahsulotlarining ikkilamchi resurslarini to‘g‘ri utilizatsiya qilish va atrof-muhitga zararini kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Xususan, *Cucumis melo* (qovun) po‘sti shu turdagi ikkilamchi resurslar qatoriga kiradi va o‘z navbatida polisaxaridlar asosida yaratilayotgan yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan dori vositalari, funktsional oziq-ovqat qo‘shimchalari yoki biomateriallar sintezi uchun qimmatli xom ashyoga aylantirish imkoniyatini beradi. Ushbu ilmiy tadqiqot *Cucumis melo* po‘stlog‘i polisaxaridlaridan olingan natijalarni nazariy jihatdan umumlashtirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Jahonda yuqori biologik faollikka ega birikmalarni biosintez qiluvchi o‘simliklardan polisaxaridlarni ajratib olish, tuzilishi va xossalarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, o‘simlik polisaxaridlari immunomodulyator, prebiotik, antimikrob va o‘smaga qarshi faolliklarni namoyon qilishi, shuningdek, metabolik sindrom va yallig‘lanishni davolashda samaradorligi tufayli zamonaviy farmakognoziya va tibbiyot amaliyotida keng qo‘llanib kelinmoqda. Bundan tashqari ularni amaliyotda qo‘llashda immunoregulyatorlik yoki dori vositalarini yetkazib berish (transport) xususiyatlari hamda biologik jihatdan xavfsiz va organizmga toksik ta‘sir ko‘rsatmasligiga, allergiya qo‘zg‘atish va pirogen xususiyati mavjud emasligiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, mahalliy xomashyo manbalari asosida import o‘rmini bosa oladigan milliy mahsulotlar olish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha muhim natijalarga erishmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish”¹ bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yilgan. Shu maqsadga erishishda mahalliy xom-ashyo *Cucumis melo* L. po‘stlog‘idan foydalanib polisaxaridlar ajratib olish va ularni modifikatsiya qilish hamda biologik faolliklarini o‘rganish asosiy masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi "Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-4901-sonli, 2022-yil 20-maydagi "Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-251-sonli qarorlari, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» hamda VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq olib borilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida D. Ropartz, C.G. Mellinger, T.R. Cipriani, E. Colho, Ch. Jialong, W. Guo, M.Q. Peng, M.A. Soomro, S. Saeidi, M. Hamed, K. Ketha, Yu.S. Ovodov, V.A. Babkin, S.V. Popov, V.F. Mironov, S.T. Minzanova, A.Y. Arbuzov kabi yetakchi olimlar tomonidan tabiiy manbalardan polisaxaridlar ajratib olish, ularni tadqiq qilish hamda ularning qo'llanish sohasini yanada rivojlantirishga doir ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

O'zbekistonda tabiiy manbalardan polisaxaridlar ajratib olish, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari, tuzilishini o'rganish va yangi biologik faolliklarini aniqlash bo'yicha R.K. Rahmanberdiyeva, M.X. Malikova, K.S. Jaunbayeva, N.S. Polyakova, N.P. Yuldasheva, D.Z. Azizov, X.N. Aripov va boshqalar shug'ullanishgan, A.S. To'rayev rahbarligida polisaxaridlar va ularning modifikatsiyalangan shakllarining kimyoviy transformatsiyasi, molekulyar va supramolekulyar tuzilmalari, shuningdek ular asosida tibbiy amaliyot va agrosanoat uchun yuqori samarali yo'naltirilgan dori vositalari, preparatlar va jarrohlik materiallarini yaratish bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar yuqori darajada amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, qovun po'stlog'i kabi qishloq xo'jaligi chiqindilaridan yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan biologik faol moddalarni olish, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslarni tejash istiqbollari mos keladi. Shuningdek, tabiiy polisaxaridlar asosida yangi samarali dori vositalari ishlab chiqishda *Cucumis melo* polisaxaridlarini o'rganish fundamental va amaliy ahamiyatga egadir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda o'sadigan dorivor o'simliklarni kimyoviy tadqiq qilish, biologik faol moddalarni ajratib olish, tuzilishini tadqiq qilish, modifikatsiyalash, ta'sir mexanizmini o'rganish, hamda tibbiyot va qishloq xo'jaligi uchun samarador dori vositalar yaratish" mavzusidagi ilmiy yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston hududida keng tarqalgan *Cucumis melo* L. moddalarini olish, ularning tuzilishi va xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qovun po'stlog'i tarkibidan polisaxaridlarni (suvda eruvchan-SEPS, pektin moddalar-PM va gemisellyulolazalar-GMS) ajratib olish;

ajratib olingan polisaxaridlarning fizik-kimyoviy xossalari o'rganish va monosaxarid tarkibini aniqlash;

polisaxarid makromolekulasining tuzilishini fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida o'rganish;

polisaxaridlar (suvda eruvchan polisaxaridlar – SEPS va pektin moddalar-PM) ning biologik (mikroblarga qarshi va prebiotik) faolliklarini o'rganish;

ajratib olingan pektin moddasining ayrim birlamchi aminlar bilan hosilalarini olish, ularning biologik faolligini, o'tkir zaharlilik darajalarini va kumulyativlik xususiyatini o'rganish.

Tadqiqotning obyekti sifatida uch xil navdagi: Torpedo, Obi-novvot, Kassaba qovunlari (*Cucumis melo*) ning po'stlog'i tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti *Cucumis melo* po'stlog'i polisaxaridlari: suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari, gemisellyulozalar va pektin moddalarining ayrim birlamchi aminlar bilan hosilalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarish jarayonida bioorganik va organik kimyo usullari (ajratib olish, tozalash, kislotali va fermentativ gidroliz, metillash, oksidlash, modifikasiya-pektin moddasining azometin hosilalarini olish) va fizik-kimyoviy usullar (IQ, UB, YaMR spektroskopiya, GX-gaz xromatografiya, GX-MS, SEM- skanerlovchi elektron mikroskop, YuSSX-yuqori samarali suyuqlik xromatografiya, YuESX-yuqori eksklyuzion samarali xromatografiya) dan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mahalliy xomashyo *Cucumis melo* 3 xil navi po'stlog'idan polisaxaridlar ajratib olingan va ularning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari hamda monosaxarid tarkibi aniqlangan;

ilk bor mahalliy xomashyo *Cucumis melo* suvda eruvchan polisaxaridlari (SEPS-3) ni qisman gidroliz qilish bilan uning tuzilishi gomogen, ($\rightarrow 4$)- α -Glc-p-(1 \rightarrow) chizikli tuzilishga ega bo'lgan glyukan (GK-2) ekanligi aniqlangan;

Cucumis melo pektin moddasi (PM-3) ni fermentativ gidroliz qilish bilan pektin makromolekulasining asosiy zanjiri poli-D-galakturonan va yon zanjirda glyukoza hamda galaktoza qoldiqlaridan iborat ekanligi isbotlangan;

ilk bor *Cucumis melo* polisaxaridlarining antimikrob va prebiotik faolliklari hamda pektin asosida ayrim birlamchi aminlar bilan olingan Shiff asoslarining antimikrob faolliklari va zaharlilik darajasi (LD₅₀) o'rganildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Respublikamiz hududida o'suvchi *Cucumis melo* po'stlog'idan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar hamda pektin moddasining ayrim birlamchi aminlar bilan olingan Shiff asoslarining antimikrob faollikni namoyish etgani aniqlangan.

Respublikamiz hududida o'suvchi *Cucumis melo* po'stlog'ining prebiotik faollikka ega suvda eruvchan polisaxaridlarning boy tabiiy manbasi sifatida ishlatilishi mumkinligi hamda zaharlilik darajasi va kumulyativlik xususiyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan IQ, UB, YaMR spektroskopiya, gaz xromatografiyasi (GX), gaz xromato-mass spektrometriya (GX-

MS), skanerlovchi elektron mikroskop (SEM), yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX), yuqori samarali eksklyuzion xromatografiyasi (YuESX) kabi usullardan foydalanilganligi, shuningdek olingan natijalar xalqaro va Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi hamda taqriz qilinuvchi xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy xomashyo *Cucumis melo* po'stloq qismidan polisaxaridlar ajratib olinib, ularning fizik-kimyoviy xossalari va tuzilishi to'g'risida hamda pektin moddalarini modifikatsiyalash natijasida yangi ma'lumotlar olingani va ularning mikrobgga qarshi va prebiotik faolliklari o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Ilmiy tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Cucumis melo* po'stlog'idan polisaxaridlar ajratib olinganligi, ajratib olingan polisaxaridlar va ular asosida olingan Shiff asoslarining yuqori biologik faollikni namoyon etganligi, ularning tadqiqotlar uchun izlanish obyekti bo'la olishi hamda mikroblarga qarshi va prebiotik dori preparatlarini ishlab chiqarish uchun asos bo'la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Cucumis melo* polisaxaridlarini ajratib olish va tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagilar joriy qilingan:

- *Cucumis melo* po'stlog'i polisaxaridlarining kimyoviy tuzilishi va biologik faolligi natijalaridan «Mahalliy hududdagi yuksak o'simlik polisaxaridlari va oqsillarining xossalari tuzilishi va biologik faolligi» (2021 y.) mavzusidagi bazaviy fundamental tadqiqotlarda (ma'lumotnoma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 13 fevraldagi 4/2155-382-son ma'lumotnomasi) foydalanilgan.

- *Cucumis melo* po'stlog'ining suvda eruvchan polisaxaridlari va pektin moddalarini ajratib olish va monosaxarid tarkibini o'rganish natijalaridan "Bioorganik kimyo" nomli o'quv qo'llanma tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-sonli buyrug'i, 233-0166-sonli guvohnoma). Natijada, oliy o'quv yurtlarida bioorganik kimyo bo'yicha mutaxassislarining bilimlarini mustahkamlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta respublika, 2 ta xorijiy va 1 ta Scopus bazasida indeksatsiyalanovchi jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etadi.

Ilmiy tadqiqot ishini olib borishda ko'rsatgan amaliy va ilmiy yordamlari uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti, yuqori molekulali o'simlik moddalari kimyosi laboratoriyasi mudiri, prof. R.K. Raxmonberdiyeva va laboratoriya jamoasiga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar, shuningdek tadqiqotning obyekti va predmeti ifodalangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishlariga muvofiqligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Polisaxaridlar, ularning tabiatda tarqalishi: glyukanlar va pektin moddalar: tuzilishi, tadqiqi va biologik faolligi» deb nomlangan **birinchi bobida** o'simliklarning polisaxaridlari, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari, tuzilishi va biologik faolligi, polisaxaridlar asosidaga modifikasiyalar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, shuningdek umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «*Cucumis melo* L. po'stlog'i polisaxaridlari tadqiqi» nomli ikkinchi bobida tadqiqot bo'yicha olingan shaxsiy natijalar muhokamasi keltirilgan.

Cucumis melo Torpedo navining polisaxaridlari

Suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS-1 va SEPS-i-1) amorf kukun moddalar. bo'lib, suvda yaxshi eriydi, ularning suvdagi nisbiy qovushqoqliklari 1,17–2,3 ni tashkil qildi(1%; H₂O). To'liq kislotali gidroliz, so'ng qog'oz (QX) va gaz xromatografiyasi (GX) usullaridan foydalangan holda monosaxarid tarkibi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, SEPS-1 da asosiy monosaxaridlar sifatida arabinoza (Ara), glyukoza (Glc) va galaktoza (Gal) namoyon bo'ldi, SEPS-i-1 da esa arabinoza (Ara) va glyukoza (Glc). Boshqa monosaxaridlar esa ancha kam miqdorda. Suvdagi eritmalari kraxmalga nisbatan manfiy reaksiya berdi.

Monosaxaridlar nisbatidan ma'lum bo'ldiki, sovuq suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS-1) ni glyukan tipdagi geterogen polisaxaridlar tashkil qiladi. Issiq suvda eruvchan polisaxaridlar (SEPS-i-1)ning tarkibi esa glyukanlar bilan birga glyukoarabinanlar ham borligi to'g'risida xulosa qilish mumkin. SEPS lar IQ spektrida 3339–3418 sm⁻¹ (OH-guruhlar), 1599–1613 sm⁻¹ (HOH), 1415–1418 sm⁻¹ (C=O), 1074–916, 1018–911 sm⁻¹ (α-glikozid bog') sohalarda yutilishlar kuzatildi.

Cucumis melo Torpedo navining pektin moddalari oq rangli, amorf kukun bo'lib, u suvda qovushqoq eritma hosil qilib eriydi. Monosaxarid tarkibi neytral va nordon monosaxaridlardan iborat. Ko'p miqdorda arabinoza (Ara) hamda uron kislotasidan (UrAc) tashkil topganligi aniqlangan. Uron kislotasining mavjudligi karbazol usuli yordamida aniqlangan (72%).

Uning IQ spektrida quyidagi sohalarda yutilishlar kuzatildi: 3434 sm⁻¹ (–OH

guruhlar), 1748 cm^{-1} (C=O ozod va COOH – eterifikatsiyalangan karboksil guruhlar), 1434 cm^{-1} (ionlashgan karboksil guruhlarini tebranishi), 1365 cm^{-1} (–OCH₃), 827 cm^{-1} (α -glikozid bog'i).

Pektin moddalari uchun ularning eterifikatsiyalanish darajasi juda muhim hisoblanib, shunga ko'ra ular past eterifikatsiyalangan, o'rtacha eterifikatsiyalangan va yuqori eterifikatsiyalangan pektinlarga bo'linadi. IQ spektr tahliliga ko'ra, pektin moddasi (PM-1) eterifikatsiyalangan polisaxarid hisoblanadi. Buni tasdiqlash maqsadida, eterifikatsiyalanish darajasini aniqlash uchun titrimetrik analiz o'tkazildi. Natijada karboksil va eterifikatsiyalangan guruhlar miqdori aniqlandi: Ko (ozod karboksil guruhlar) – 8,1%, Ke (eterifikatsiyalangan karboksil guruhlar) – 9,0%. Olingan natijalar pektin moddasining o'rta darajada eterifikatsiyalangan pektin ($\lambda = 52,6\%$) ga teng ekanligini ko'rsatdi. Bu esa pektin moddalarining funksional xossalari va ishlatilish sohasini belgilab berishda muhim o'rin tutadi;

Ishqor yordamida ekstraksiya qilib olingan gemisellyuloza qo'ng'ir rangli amorf kukun bo'lib, uning IQ spektrida quyidagi sohalarida yutilishlar kuzatildi: 3640 cm^{-1} (–OH guruhlar), 1742 cm^{-1} (C=O), 1078 cm^{-1} (piranoza halqasi), 1588 cm^{-1} (COO⁻), 850 cm^{-1} (α -glikozid bog'i).

Cucumis melo po'stlog'idan sovuq suv bilan ekstraksiya qilib ajratib olingan SEPS-1 keyingi izlanishlar uchun tanlab olindi. Sefadex G-75 da o'tkazilgan gel-filtratsiya uning geterogen tarkibga ega ekanligini ko'rsatdi. Gomogen fraksiyalarni olish uchun SEPS-1 spirt bilan fraksiyalanib, 4 ta fraksiya (FI-T, FII-T, FIII-T, FIV-T) olindi va monosaxarid tarkibi aniqlandi.

1-jadval

Cucumis melo po'stlog'i SEPS-1 fraksiyalarining monosaxarid tarkibi

SEPS-1 Fraksiyalar	Unum, %	Mr, kDa	Monosaxarid tarkibi, GX						UAc
			Rha	Ara	Xyl	Man	Glu	Gal	
FI-T	9.0	108	1.8	9.0	6.2	-	65.5	15.0	-
FII-T	18.0	83	2.2	18.0	2.5	-	72.0	5.1	-
FIII-T	10.0	45	4.4	24.5	8.7	-	40.4	22.0	-
FIV-T	54.0	25-10	-	39.5	9.2	4.0	36.0	11.4	+

FI-T–FIII-T fraksiyalar gel-filtratsiya natijasiga ko'ra gomogenlik darajasi va miqdoriy monosaxarid tarkibi bo'yicha farqlanishi aniqlandi. FI-T va FII-T fraksiyalar esa tarkibida glyukozaning ustunligi bilan xarakterlanadi. Unum bo'yicha eng ko'p miqdorda olingan FIV-T fraksiya, past molekulyar birikmalardan iborat. Boshqa fraksiyalardan farqli ravishda u mannoza va uron kislotasini o'z ichiga oladi.

***Cucumis melo* Obi-novvot navining polisaxaridlari**

Cucumis melo Obi-novvot polisaxaridlarining monosaxarid tarkibi to'liq kislotali gidroliz qilinib, YuSSX bilan tekshirilganda sovuq suvda va issiq suvda eruvchan polisaxaridlar tarkibi jihatdan keskin farq qilmaganini ko'rish mumkin.

Ular amorf kukun bo'lib, suvda yaxshi eriydi, ularning suvdagi nisbiy qovushqoqliklari esa 1,15–1,8 (1%; H₂O). SEPS-2 da asosiy monosaxaridlar sifatida mannoza (Man) va ramnoza (Rha) namoyon bo'ldi, SEPS-i-2 da esa mannoza (Man) va arabinoza (Ara). Boshqa monosaxaridlar esa ancha kam miqdorda. Suvdagi eritmalari kraxmalga nisbatan manfiy reaksiya berdi. Suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalari va gemisellyulozalarning IQ spektri tahlil qilinganda polisaxaridlarga xos xarakteristik cho'qqilar kuzatiladi. Spirtli fraksiyalash natijasida suvda eruvchan polisaxaridlar uchta fraksiyaga ajratildi (FI-O, FII-O va FIII-O) va ularning har biri unum hamda monosaxarid tarkibi bilan farqlanadi.

2-jadval

Cucumis melo Obi-novvot polisaxaridlarining fraksiyalari va ularning monosaxarid tarkibi

Fraksiyalar	Unum %	Monosaxarid tarkibi, YuSSX						UAc
		Rha	Ara	Xyl	Man	Glu	Gal	
FI-O	1,2	8	51,1	17,1	22,8	-	-	+
FII-O	6,5	-	33,3	-	44,7	21,8	-	-
FIII-O	3,4	6	24,1	-	49,1	10,3	9,1	+

2-jadvaldagi natijalarga ko'ra FI-O fraksiyasi eng kam miqdorda ajraldi (1,2%) va asosan arabinoza (51,1%), ksiloza (22,8%) va ramnoza (8%)dan tashkil topganligini ko'rish mumkin. Bu fraksiyada glyukoza va galaktoza aniqlanmadi. Uron kislotasining (UAc) mavjudligi kislotali polisaxaridlarga mansubligini ko'rsatadi. FII-O fraksiya eng yuqori unum (6,5%) ni tashkil etib, uning tarkibida asosan glyukoza (44,7%) va galaktoza (21,8%) mavjud ekanligini ko'rsatdi. Bu fraksiyada uron kislotasi aniqlanmadi, bu esa FII-O fraksiyaning neytral polisaxarid ekanligiga ishora qiladi. FIII-O fraksiyada (3,4%) esa tarkib jihatdan murakkabroq: glyukoza (49,1%), ksiloza (24,1%), galaktoza (9,1%), arabinoza (10,3%) va ramnoza (6%) dan iborat, uron kislotasiga sifat reaksiyasi esa musbat javob berdi. Bu esa FIII-O fraksiyaning murakkab tuzilgan, kislotali polisaxarid ekanligini bildiradi.

***Cucumis melo* Kassaba navining polisaxaridlari**

Cucumis melo Kassaba polisaxaridlari ajratib olinib YuSSX xromatografiyasida monosaxarid tarkibi o'rganilgandan so'ng chuqurlashtirilgan tadqiq uchun aynan shu nav polisaxaridlari tanlab olindi. Chunki, Kassaba navi polisaxaridlarining eruvchanligi qolgan ikki navga qaraganda yuqori va monosaxarid tarkibining gomogenligi bo'yicha ham ustun ekanligi ko'rildi.


Spirtli fraksiyalash natijasida ajratib olingan uchta fraksiyadan unumi eng yuqorisi va monosaxarid tarkibi bo'yicha (Glc 66,4%) gomogenlikni namoyon qilgan FII-K fraksiya keyingi izlanish uchun tanlab olindi, eruvchanligini oshirish hamda molekulyar massasini kamaytirish uchun 0,1 n HCl bilan qisman gidroliz amalga oshirildi. Natijada etanol bilan quritib olingan polisaxarid Glyukan (GK)

deya nomlandi. Qisman gidrolizdan so‘ng FII-K va GK molekulyar massalari o‘lchanib solishtirilganda, GK ning molekulyar massasi 890 kDa dan 500 kDa gacha kamayib, eruvchanligi ortganligi kuzatildi.


Bu hodisa polisaxarid zanjiridagi glikozid bog‘larning (asosan 1→4 va 1→6) selektiv uzilishi bilan izohlanadi. Kislotali muhitda protonlar gidroksil guruhlarini protonlab, glikozid bog‘larning parchalanishini tezlashtiradi, natijada polimer zanjiri qisqaradi. Molekulyar massaning kamayishi polisaxaridning suv bilan gidratlanish qobiliyatini oshirib, molekulalararo o‘zaro ta‘sirni kamaytiradi, bu esa eruvchanlikning oshishiga olib keladi. Qisman gidroliz jarayoni polisaxaridning asosiy funktsional guruhlarini (-OH, -COOH) saqlab qolgan holda uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yaxshilaydi.

GK ning tuzilishini aniqlash maqsadida Ciucanu usulida metillandi va to‘liq metillangan hosila olindi. To‘liq metillanishni IQ spektri yordamida 3400-3200 cm^{-1} sohada -OH guruh kamayishi bilan tekshirib turildi. Olingan permetilatlar metanoliz qilinib, asetillangandan so‘ng, hosilalar olindi.

GK-2 ning IQ spektridan -OH guruhiga xos bo‘lgan xarakteristik cho‘qqining yo‘qolishidan to‘liq metillashga erishilganini ko‘rish mumkin, shuningdek 1158 cm^{-1} dagi cho‘qqilar glikozid bog‘ning 1→4 bog‘lanish, 919 cm^{-1} dagi xarakteristik cho‘qqi α holatda ekanligini ko‘rsatadi (1,2-rasm).




1-rasm. GK-1 ning 1-metillanish mahsuloti



2-rasm. GK-1ning 2-metillanish mahsuloti (GK-2)

Bunga qo‘shimcha ravishda glikozid bog‘ tabiatini o‘rganish maqsadida, permetilat yupqa qatlam xromatografiyasida tekshirilganda asosiy mahsulot sifatida 2,3,4,6- tetra-O-Me-D-Glcp va 2,3,6-tri- O-Me-D-Glcp identifikasiya qilindi bu esa geksoza qoldiqlari orasida 1→4 bog‘lanish mavjudligiga ishora qiladi. Namuna GX/MS usulida o‘rganilganda ham bu natija tasdiqlandi (3-rasm).



3-rasm. GK-2 ning GX-MS xromatogrammasi

Metillash usuli orqali o‘tkazilgan tahlil asosida, tadqiq qilinayotgan namuna asosan (1→4)-glikozid bog‘lanishlarga ega bo‘lgan chiziqli α-D-glyukan ekanligi to‘g‘risida xulosani qilish imkonini berdi.


GK-2 ning GX Fizik-kimyoviy usullar yordamida olingan natijalarni tasdiqlash maqsadida YaMR spektroskopiyaga murojaat qildik. GK-2 ning ¹³C va ¹H spektrlarida (2.16- va 2.17-rasmga qarang) →4)-α-Glcp-(1→ va →6)-α-Glcp-(1→ C1 qoldig‘iga xos bo‘lgan kimyoviy siljishlar 97.8 m.u. da va 99.0 m.u. da namoyon bo‘ldi. 69.59 m.u. (C-6) dagi va 3.81 (H-4) dagi signallar esa almashingan glyukoza qoldiqlariga xos. C-4 signalining kuchsiz maydonga siljishi (0.25 m.u.) C-6 bo‘yicha almashinish borligidan dalolat beradi. Qolgan signallarga xos kimyoviy siljishlar 3-jadvalda keltirildi.

3-jadval

GK-2 fragmentining ¹H va ¹³C YaMR spektridagi (δ, ppm) kimyoviy siljishlar

Monosaxarid qoldig‘i	C1/ H1	C2/ H2	C3/ H3	C4/ H4	C5/ H5	C6/ H6
→4)-α-Glcp-(1→	97.8	71.48	73.47/	-	71.48/	-
	-	3.45	3.61	3.56	3.87	3.77
→4,6)- α-Glcp-(1→		71.48	72.9	-	72.9	69.59
		3.44		3.81	3.61	3.40
→6)-α-Glcp-(1→	99.0	73.47	72.9	70.51	71.48	65.52
	-	3.45	3.61	3.40	3.87	3.87

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, metillash natijalari va YaMR tahlili, GK-2 ning glyukanlar sinfiga kiruvchi α-Glcp qoldiqlariga ega bo‘lgan, chiziqli α-(1→4)-glyukan tuzilishli ekanligini tasdiqladi hamda quyidagicha tuzilishga ega ekanligi to‘g‘risida xulosa qilish imkonini beradi:



Pektin ekstraksiyasi usullarining solishtirma tahlili va uning pektin tuzilishiga ta'sirni o'rganish maqsadida, pektin ajratib olish uchun oksalat kislota (0,5% ammoniy oksalat-oksalat kislota eritmasi, pH 2,0), xlorid kislota bilan (0,25%) va limon kislota (1%) bilan ekstraksiya jarayoni olib borildi.

4-jadval

Pektin moddalarining titrimetrik tahlil natijalari


Pektin moddalari	Unum (gr)	η_{nis} (1%; H ₂ O)	Kc (%)	Ke (%)	Ku (%)	De (%)
PM-3	3,7	2,1	4,5	8,1	12,6	64,2
PM-4	2,5	1,2	3,2	10,8	14,0	77,1
PM-5	1,7	2,7	5,6	7,4	13,0	56,9

Natijalar pektin ajratishda eng yuqori samaradorlik oksalat kislota bilan ekstraksiyada (3,7 g; PM-3) ekanligini, limon kislota (2,5 g; PM-4) va xlorid kislotada (1,7 g; PM-5) kamroq ekanligini ko'rsatdi (4-jadval).


Pektin moddasi (PM-3) ning tuzilishini aniqlash uchun fermentativ gidroliz usulidan foydalanildi, ya'ni pektinaza fermenti yordamida gidroliz qilindi. Ushbu ferment bilan ishlov berilganda, α -1,4-bog'langan D-galakturonan kislota bo'lgan to'g'ri zanjirli qismlar parchalab yuboriladi, natijada gidrolizatda erkin D-galakturonan kislota hosil bo'ladi va tarmoqlangan qismlardan kislotali fragmentlar ajraladi. PM-3 pektin moddalari 1,4- α -D-glukopiranoziluronaza (pektinaza) fermenti yordamida 37°C haroratda 3 soat davomida fermentativ gidrolizga uchratildi. Natijada boshlang'ich pektin moddasidan neytral monosaxaridlardan xoli bo'lgan va faqat D-galakturon kislota qoldiqlaridan tashkil topgan polimer – galakturonan cho'kmaga tushdi. Karbazol usuli yordamida aniqlangan galakturonan kislotaning miqdori 78% ni tashkil etdi. Uron kislotalarning yuqori miqdori PM-3 pektin moddasining asosiy zanjiri 1,4- α -D-galakturonandan iborat ekanligini ko'rsatadi va uni pektin moddalari sinfiga kiritishga asos beradi

Fermentativ gidrolizdan so'ng cho'kma ustidagi eritmani spirt bilan cho'ktirilib, aseton bilan quritildi. Quritib olingan polisaxaridni QX va YuSSX yordamida tekshirilganda, tarkibidagi asosiy monosaxaridlar –glyukoza va galaktoza ni tashkil etdi.

Tadqiq qilinayotgan PM-3 pektin moddasining tuzilishini aniqlash maqsadida ¹H va ¹³C spektrlari olinganda, pektin gidrolizatining YaMR tahlili (¹H, ¹³C, COSY, HSQC, HMBC) →4)- α -GlcP-(1→ ga xos (H1/C4 5.05/100.17 ppm va ¹³C 100.49/70.08 m.u. signallari bilan tasdiqlangan) va de-eterifikatsiyani (COOH 170.79 m.u.) aniqladi, bu pektinazaning selektiv ta'siri bilan mos keladi (4,5-rasm).



**4-rasm.PM-3 ning ¹³C
YaMR spektri**



**5-rasm.PM-3 ning ¹H
YaMR spektri**

Gidrolizga chidamli g'ayrioddiy shoxlanishlar — glyukoza (Glc, COSY: H1/H2 5.08/4.96 m.u.; ¹³C: 99.02 m.u.) va galaktoza (Gal, HSQC: 5.20/92.45 m.u.) topildi, ramnoza signallarining yo'qligi esa, pektin moddasining ramnogalakturonan tipiga mos emasligini tasdiqlaydi (5-jadval).

5-jadval

Kassaba PM-3 ning ¹H va ¹³C YaMR spektridagi (δ, m.u.) kimyoviy siljishlar

Monosaxarid qoldig'i	C1/ H1	C2/H2	C3/H3	C4/H4	C5/H5	C6/H6
→4)-α-Glcp-(1→	100.02/ 4.84	72.51/ 3.53	73.43/ 3.60	71.40/ 3.52	68.94/ 3.89	57.51/ 3.23
→4)-α-Galp-(1→	92.38/ 5.23	69.68/ -	70.18/ 4.20	70.64/ 4.18	71.25/ 4.34	67.90/ 3.69

***Cucumis melo* Kassaba navi pektin moddalarining modifikatsiyasi**


Pektin moddalarining ayrim birlamchi aminlar bilan hosilalarini olish uchun avval oksidlandi va pektin moddasining polialdegidi (PM-3-P) (0,27 gr) 54% unum bilan olishga muvaffaq bo'lindi, oksidlanish jarayoni IQ spektroskopiya va titrlash usulida nazorat qilindi. IQ spektrda polialdegidga xos xarakteristik cho'qqilar kuzatildi. Polialdegid tuzilishining IQ spektroskopiya orqali tasdiqlanishidan so'ng, polimerning xossalari oksidlanish sharoitlariga bog'liq ekanligi hisobga olinib, HIO₄ konsentratsiyasini o'zgartirib, bir necha bor oksidlash amalga oshirildi. Buning natijasida, -CHO guruhlari miqdorining suvda eruvchanlikka sezilarli ta'siri aniqlandi ya'ni oksidlanish darajasining oshib borishi bilan (6,1% dan 18,71 % gacha) ,polimerning suvda eruvchanligi ham qiyinlashib bordi. Buni -CHO guruhlarning esa gidroksil guruhlarga nisbatan qutbliligi pastroq ekanligi va suv bilan zaifroq o'zaro ta'sirga kirishishi bilan tushuntirish mumkin.. Shuning uchun, oksidlanish darajasi oshgani sari (ya'ni -CHO ko'paygani sari) polimerning gidrofob

xususiyati kuchayadi va eruvchanlik kamayadi. Modifikatsiya jarayoni uchun eng optimal hisoblangan 15,22% oksidlanish darajasiga ega, eng yaxshi eruvchanlikni namoyon qilgan polialdegid (PM-3-P) tanlab olindi.


Shu o'rinda polimerlar uchun asosiy xarakteristik belgilardan biri molekulyar massaga fermentativ gidroliz va oksidlanish jarayonining ta'sirini o'rganish maqsadida YuSEX dan foydalanildi. PM-3, PM-3-F (fermentativ gidroliz qilingan pektin) va PM-3-P ning molekulyar massalari o'rganilib quyidagi xulosaga kelindi: PM-3 ning molekulyar massasi 1580 kDa ni tashkil qilib, fermentativ gidroliz uning molekulyar massasini 560 kDa gacha kamaytirdi, bu esa polimerning asosiy zanjiridagi glikozid bog'larining qisman uzilganini ko'rsatadi. Keyingi bosqichda yod kislota bilan oksidlanish molekulyar massani 400 kDa gacha tushirdi, bu esa yon tarmoqlarda joylashgan galaktoza yoki gkyukoza qoldiqlaridagi yaqin joylashgan diol strukturalarining parchalanishini anglatadi.

PM-3-P (Mr-400 kDa, -CHO%=15,22%) ni modifikatsiyasi uchun benzilamin va 2-oksibenzilamin birlamchi aminlari tanlab olindi. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pektin asosida benzilamin (PB) va salitsilamin (PS) bilan shiff asoslarini sintezi qilish bir qator muhim qonuniyatlarni namoyon qiladi. Reaksiya sharoitlarini pH 5.5 atsetat buferi muhitida, 50°C haroratda va 24 soat davomida optimallashtirish yuqori unumga erishish imkonini berdi: PB uchun 85.7% (120 mg) va PS uchun 88.6% (124 mg). Polisaxaridlar bilan kondensatsiya reaksiyalarini o'tkazishning qiyinligini hisobga olsak, bu ko'rsatkichlar sintezning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Reaksiyaning muvaffaqiyatli o'tganligining asosiy isboti IQ-spektrlarda 1720 cm^{-1} da karbonil guruhining xarakteristik cho'qqining yo'qolishi va 1594-1600 cm^{-1} sohasida yangi yutilish cho'qqilarining paydo bo'lishi bo'lib, ular hosil bo'lgan Shiff asoslaridagi C=N bog'lanishlariga mos keladi. Ayniqsa, bu piklar joylashuvidagi farq - PB uchun 1594 cm^{-1} va PS- chun 1600 cm^{-1} - alohida qiziqish uyg'otadi, bu PS uchun fenol gidroksili ishtirokida ichki molekulyar vodorod bog'ining hosil bo'lishi natijasida imin guruhining qo'shimcha barqarorlashuvi bilan izohlanishi mumkin (6,7-rasm).



6-rasm. PB ning IQ spektri



7-rasm. PS ning IQ spektri

UB-spektroskopik tahlil natijalari solishtirilganda, boshlang'ich modda ya'ni PM-3-P (polialdegid) va Shiff asoslari PS va PB larningning spektrlarida sezilarli farqlari qayd etildi.

Pektin asosida olingan boshlang'ich polialdegid PM-3-P hamda uning benzilamin va salitsilamin asosidagi hosilalari (PS, PB) ning sirt morfologiyasini tahlil qilish maqsadida, ularning skanerlovchi elektron mikroskopi (SEM) yordamida tasviri o'rganildi. Elektron mikroskop (SEM) natijalari tekshirilgan namunalarning ust-molekulyar strukturalaridagi aniq farqni ko'rsatdi, ularning o'rtacha zarrachalari 20 va 50 nm da o'rganildi.

Olib borilgan tadqiqotda nafaqat *Cucumis melo* Kassaba po'stlog'ining polisaxaridlari, balki uning asosiy tarkibiy qismlari – aminokislotalar va makro hamda mikroelementlar tahliliga ham e'tibor qaratildi.

Kassaba qovuni po'stlog'ining noyob aminokislotali tarkibi unga bir qator muhim biologik xususiyatlar beradi. Aminokislota tarkibi YuSSX da o'rganildi, natijalarga ko'ra: asosan, glitsin (1.04 mg/g), alanin (1.01 mg/g) va valin (2.28 mg/g) ning yuqori miqdorda bo'lishi bilan ajralib turishi kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar odatdagi o'simlik chiqindilariga nisbatan 3-10 baravar yuqori. Ayniqsa, valinning rekord darajadagi miqdori (2.28 mg/g) bifidobakteriyalarning o'sishini faollashtirishga, shuningdek qisqa zanjirli yog' kislotalarining ishlab chiqarilishini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, *Cucumis melo* Kassaba po'stlog'ining makro- va mikroelement tarkibi asosida, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin (hisobot **6-ildovada** keltirildi): makroelementlar (Ca 0.44%, Mg 0.44%, K 0.23%) fiziologik jihatdan muhim diapazonlarda bo'lib, to'qimalarning tuzilishini va ferment faolligini ta'minlaydi, fosforning past miqdori (0.02%) biroz past bo'lib, aksincha temirning rekord darajadagi miqdori (0.12%) *Cucumis melo* po'stlog'ining antioksidant xususiyatlarini oshirishi mumkin. Zn (71.2 µg/g) va Cu (18.9 µg/g) ning optimal kontsentratsiyalari esa fermentlar uchun kofaktor sifatida ahamiyatini tasdiqlaydi. K/Na (1.5:1) va Ca/Mg (1:1) nisbatlarining muvozanatli bo'lishi xom ashyoni funktsional oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi uchun mineral qo'shimchalar va bioremediatsiya uchun istiqbolini namoyon qiladi.

***Cucumis melo* polisaxaridlarining mikroblarga qarshi faolligi**

Cucumis melo po'stlog'idan ajratib olingan polisaxaridlar va pektin moddalarining hamda pektin asosidagi Shiff asoslarining mikroblarga qarshi faolligi Mikrobiologiya instituti xodimlari tomonidan o'rganilib, SEPS-1 (Torpedo navi, 20 mm), SEPS-3 (Obi-novvot navi, 20 mm) va PM-3 (Kassaba navi, 12 mm) moddalari *Serratia marcescens* shartli-patogen mikroorganizmiga qarshi antimikrob faollikka ega ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, polialdegid asosida birlamchi aminlar bilan olingan hosilalarning 7 ta shartli-patogen mikroorganizmlar shtammlaridan 4 tasi: *Escherichia coli* 002673/477 (22 mm), *Staphylococcus aureus* (20 mm), *Pseudomonas aeruginosa* (24 mm), *Serratia marcescens* (9 mm) shtammlariga qarshi yuqori darajadagi antimikrob ta'sir namoyon qildi.

Kimyoviy modifikatsiya qilingan pektin moddalarining antimikrob faolligi o'zgarishlarini tushuntirish uchun ularning tuzilishidagi o'zgarishlarini hisobga olish kerak. Dastlabki tabiiy pektin faqat *Serratia marcescens* bakteriyasiga qarshi faollik ko'rsatishini (20 mm ingibirlash zonasi), pektinning karboksil guruhlari

bakteriya uchun muhim bo'lgan metall ionlarini bog'lashi bilan tushuntirish mumkin. Biroq, pektinni benzilamin bilan modifikatsiya qilganimizda (Shiff asosini hosil qilganimizda), uning *Serratia marcescens* ga qarshi faolligi ikki baravar kamaydi (10 mm). Bu o'zgarish, karboksil guruhlarning imin bog'lanishi tufayli kamroq metal ionlarini bog'lashi va molekulaning gidrofob xususiyatlarining oshishi natijasida bakterial hujayra bilan o'zaro ta'sirning qiyinlashuvi bilan izohlanishi mumkin.

Aksincha, pektinni salisilamin bilan modifikatsiya qilganimizda, yangi bakteriyalarga qarshi yuqori faollik kuzatildi: *Escherichia coli* (22 mm), *Pseudomonas aeruginosa* (24 mm) va *Staphylococcus aureus* (20 mm). Bu effekt, salitsilamin tarkibidagi fenol guruhi (-OH) tufayli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin, chunki salisil kislotasi o'zining antibakterial xususiyatlari bilan mashhur. Modifikatsiyalangan pektin molekulasi gidrofil (pektin qismi) va aromatik (fenol halqasi) qismlarni birlashtirgani uchun turli bakteriyalarning hujayra devorlariga osonlikcha kirib boradi. Fenol guruhi bakterial membranalarning buzilishiga olib kelishi mumkin, imin bog'lanishi (-C=N-) esa bakterial fermentlar bilan o'zaro ta'sirlashib, ularning faolligini pasaytirishi mumkin. Shu bilan birga, modifikatsiyalangan pektinning *Serratia marcescens*ga qarshi faolligining pasayishi, yangi birikmaning ta'sir mexanizmining o'zgarganligini ko'rsatadi

***Cucumis melo* polisaxaridlarining prebiotik faolligi**

Ilmiy izlanishlar *Cucumis melo* polisaxaridlarining antimikrob va prebiotik faolligi O'zR FA Mikrobiologiya instituti "Probiyotiklar mikrobiologiyasi va biotexnologiyasi" laboratoriyasi xodimlari bilan hamkorlikda olib borildi.

Cucumis melo polisaxaridlarining bifidobakteriyalari assotsiatsiyasi o'sishiga stimullovchi ta'siri amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan olma pektini bilan qiyoslab o'rganiladi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan prebiotiklarning ozuqa muhiti tarkibiga kiritilishi ularning faol ishlashiga yordam beradi va shu bilan birga tirik hujayralar sonini ko'paytiradi. Agar *Pediococcus acidilactici* o'sishini MRS-sho'rva ozuqa muhiti va prebiotik qo'shimchalar qo'shilgan muhit bilan taqqoslansa, ikkinchisi tirik hujayralarning yuqori titrini ta'minlashini ko'rish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan polisaxaridlardan – PM-3 (Kassaba navi), PM-1 (Torpedo navi), SEPS-3 (Kassaba navi), SEPS-1 (Torpedo navi) va SEPS-2 (Obinovvot navi) bifidobakteriyalarning o'sishiga sezilarli hissa qo'shgan. Prebiotiklar qo'shilgan muhitda 48 soat davomida etishtirilganda, bifidobakteriyalarning 2% hajmdagi miqdori mos ravishda 10^{11} , 10^{11} , 10^{11} , 10^{11} va 5×10^{10} KOE/ml ni tashkil etdi, bu nazorat guruhiga nisbatan yuqori ko'rsatkichdir.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, polisaxaridlarning o'sishni rag'batlantiruvchi ta'siri olma pektiniga nisbatan bifidobakteriyalarning hayotiyiligiga kuchliroq ta'sir ko'rsatdi. Bu *Cucumis melo* (qovun) po'stlog'idagi polisaxaridlarning samaraliroq prebiotik faollikka ega ekanligidan dalolat beradi.

***Cucumis melo* polisaxaridlari va birlamchi aminlar bilan hosilalarining o'tkir**

zaharlilik darajasi va kumulyativlik xususiyatlari

Tadqiqotlarda polisaxaridlarning toksik xususiyatlarini va organizmda to'planish darajasini aniqlash maqsadida ularning o'tkir va surunkali ta'siri Biofizika va biokimyoy institutining Metabolomika laboratoriyasi katta ilmiy xodimi M. Mustafakulov bilan hamkorlikda o'rganildi. Tadqiqotning natijalari 6-jadvalda ko'rsatilgan.

6-jadval

Cucumis melo polisaxaridlarining o'tkir zaharliligini aniqlash

Pre-parat	Tarkibi	Erituv-chi	<i>In vitro</i> mkg/ml
1	PM-3 (Kassaba navi pektini)	H ₂ O	100/250/500/750/1000
2	PM-3-P (Pektin moddasining polialdegidi)	H ₂ O	100/250/500/750/1000
3	PB (Pektin-benzilamin)	H ₂ O	100/250/500/750/1000
4	PS (Pektin-salitsilamin)	H ₂ O	100/250/500/750/1000

Olingan ma'lumotlar ko'rsatadiki, tadqiq qilingan barcha birikmalar IV sinf - past xavfli moddalar guruhiga kiradi. Bu xulosani №1-4 preparatlarining bir marotaba og'iz orqali kiritilganda o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) 670, 610, 570, 540 mg/kg ekanligi tajriba hayvonlarida o'lim hollari va gematologik-biokimyoviy ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlarning yo'qligi tasdiqlaydi.

Hisoblangan natijaga ko'ra $Kk > 1$ bo'ldi, bundan ko'rinib turibdiki (№1, №2, №3, №4) kumulyativ xossaga ega emas. Ya'ni, №1-4 preparatlarining 5,0; 10,0 va 20,0 mg/kg dozalarda kalamushlar oshqozoniga ko'p martalab kiritilganda buyraklar funksional holatiga zaharli ta'sir ko'rsatmadi. Xususan, barcha testlarda sezilarli patologik o'zgarishlarning yo'qligi, shuningdek immunomodulyator ta'sirning mavjudligi, bu polisaxaridlarning inson organizmi uchun yuqori biologik xavfsizligini va ularni funksional oziq-ovqat mahsulotlarida qo'llash imkoniyatini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Tajribalar qismi**» deb nomlangan bo'lib, polisaxaridlarni ajratib olish usullari, ularning monosaxarid tarkibini, fizik-kimyoviy xossalari, tuzilishi va biologik faolligini aniqlash metodikalari yoritilgan.

Dissertatsiyani shakllantirishda adabiyotlar ro'yxati qismida 136 ta foydalanilgan ilmiy manbalar keltirilgan.

XULOSALAR

1. O'zbekiston Respublikasida keng tarqalgan *Cucumis melo* L. o'simligining (Torpedo, Kassaba va Obi-novvot navlari) po'stloq qismining uglevodlar kompleksi o'rganilib, mos ravishda 8, 3, 4.5 % unum bilan sovuq suvda eruvchan polisaxaridlar, 1, 1.4, 2.1 % unum bilan issiq suvda eruvchan polisaxaridlar, 5, 3.7,

4.1 % unum bilan pektin moddalari va 2, 1.95, 1.8 % unum bilan gemitsellyulozalar tashkil etishi ko'rsatildi.

2. *Cucumis melo* Kassaba navining pektin moddalari yuqori eterifikatsiya darajasiga, *Cucumis melo* Torpedo va Obi-novvot navining o'rta eterifikatsiyalanish darajasiga ega ekanligi ko'rsatildi hamda ularning monosaxarid tarkibining tahlili amalga oshirildi.

3. Birinchi marotaba mahalliy *Cucumis melo* Kassaba navining suvda eruvchan polisaxaridi α -Glc p qoldiqlariga ega bo'lgan, chiziqli α -(1 \rightarrow 4)-glyukan tuzilishli ekanligi taklif qilindi.

4. *Cucumis melo* po'stlog'idan ajratib olingan suvda eruvchan polisaxaridlar, pektin moddalarining biologik (mikroblarga qarshi va prebiotik) faolliklari isbotlandi.

5. Birinchi marotaba *Cucumis melo* pektin moddalarning benzilamin va 2-oksibenzilamin hosilalari olinib, ularning *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa* va *Staphylococcus aureus* mikroblariga qarshi biologik faolligi isbotlandi, shuningdek, bir marotaba og'iz orqali kiritilganda o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) 670, 610, 570, 540 mg/kg ni tashkil etishi va kumulyativ xossaga ega emasligi ko'rsatildi.

6. Ajratib olingan polisaxaridlar va ular asosida olingan Schiff asoslarining yuqori biologik faollikni namoyon etganligi, ularning keying tadqiqotlar uchun izlanish ob'ekti bo'la olishi hamda mikroblarga qarshi va prebiotik dori vositalarini ishlab chiqarish uchun asos bo'la olishi mumkinligi taklif qilindi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.12.2019.К.05.01 ПРИ ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

СИДДИКОВА СЕВИНЧ КУРОЛ КИЗИ

СТРОЕНИЕ И СВОЙСТВА ПОЛИСАХАРИДОВ *CUCUMIS MELO*

02.00.10 – Биоорганическая химия

**АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD)
ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD/B1358.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (русском, узбекском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета при Ферганского государственного университета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Маулянов Салихжан Алимжанович
кандидат химических наук, доцент

**Официальные
оппоненты:**

Арипова Салимахон Фазиловна
доктор химических наук, профессор

Тургунбаев Шавкатжон Шухратжон угли
доктор философии по химическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский фармацевтический институт

Защита состоится «_____» _____ 2025 г. в _____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.K.05.01 при Ферганском государственном университете. (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел. (99873) 244-44-02, факс (998973) 244-44-93).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (регистрационный номер _____). (Адрес: 150100, г. Фергана, ул. Мураббийлар, 19-дом. Тел. (99873) 244-44-02, факс (998973) 244-44-93); e-mail: fardu-info@umail.uz

Автореферат диссертации разослан: «_____» _____ 2025 года.
(реестр протокола рассылки _____ от «_____» _____ 2025 года).

А.А.Ибрагимов
Председатель Научного совета по
присуждению учёной степени,
доктор химических наук, профессор

К.М. Шергозиев
Ученый секретарь Научного
Совета по присуждению учёной
степени, доктор философии
по химическим наукам

Ш.В. Абдуллаев
Председатель Научного семинара
при научном совете по присуждению
учёной степени, доктор
химических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире наблюдается растущий интерес современной фармацевтической, медицинской и пищевой промышленности к природным биологически активным веществам, в частности, к полисахаридам растений, что связано с возможностями их использования в качестве безопасных для здоровья человека, биосовместимых и экологически чистых источников. Кроме того, в настоящее время в агропромышленном комплексе ведутся масштабные работы по проблеме рациональной утилизации вторичных ресурсов – различных видов сельскохозяйственных отходов, остающихся после переработки урожая, и снижения их негативного воздействия на окружающую среду. В частности, к таким вторичным ресурсам относятся кожура *Cucumis melo* (дыни), которые, в свою очередь, представляют собой ценное сырье для синтеза обладающих высокой биологической активностью лекарственных средств, функциональных пищевых добавок или биоматериалов на основе полисахаридов. Данное научное исследование направлено на теоретическое обобщение результатов, полученных при изучении полисахаридов из кожуры *Cucumis melo*, и определяет направления их практического применения.

В мире проводятся научные исследования по выделению, изучению структуры и свойств полисахаридов из растений, осуществляющих биосинтез соединений с высокой биологической активностью. В частности, полисахариды растений находят широкое применение в современной фармакогнозии и медицинской практике благодаря проявлению такой активности, как иммуномодулирующая, пребиотическая, антимикробная и противоопухолевая, а также благодаря эффективности при лечении метаболического синдрома и воспалительных процессов. Кроме того, при их практическом использовании особое внимание уделяется таким свойствам, как иммунорегуляторная способность или доставка (транспорт) лекарственных средств, а также биологической безопасности и отсутствию токсического воздействия на организм, не вызывают аллергические реакции и пирогенные свойства.

В нашей Республике достигнуты значительных результаты в области охраны окружающей среды, а также в получении и реализации импортозамещающей национальной продукции на основе местного сырья.

Настоящее диссертационное исследование в определенной степени способствует выполнению задач, утвержденных Президентом Республики Узбекистан в стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы, где поставлена цель “Обеспечить устойчивость национальной экономики, продолжить промышленную политику, направленную на увеличение доли промышленности в ВВП, и увеличить объем производства промышленной продукции в 1,4 раза”¹; указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-4901 от 26 ноября 2020 года “О мерах по расширению масштабов научных исследований в области выращивания и переработки лекарственных растений, а также развития их семеноводства”, ПП-251 от 20

мая 2022 года “О мерах по организации культурного выращивания и переработки лекарственных растений, а также их широкого использования в лечебной практике” а также других нормативно-правовые документах, связанных с этой деятельностью.

